



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-noyabrda PQ-4887 “Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar” doirasida Sog‘liqni saqlash vazirligi va O‘zbekiston oshpazlar Uyushmasi tomonidan hamkorlikda davolash-profilaktika muassasalarida hamda ta‘lim muassasalarida sog‘lom ovqatlanishni tashkil etish bo‘yicha 2021-2025 yillarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasi

No	Tadbirlar	Bajarish muddati	Moliyaviy manbalari	Mas‘ul bajaruvchilar
1.	Sog‘lom ovqatlanish bilan bog‘liq yangiliklar, sohada yuzaga kelayotgan o‘zgarishlar, zamonaviy tajribalar, yuzasidan malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish orqali Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi davolash-profilaktika muassasalari hamda ta‘lim muassasalari oshpazlari va oshpaz yordamchilarini kasbiy darajalarini oshirib borish. Bunda o‘qitish usulini onlayn va offlayn usulidan foydalanish.	2021-2025 yillar davomida	Xodimlarning o‘z mablag‘lari	O‘zbekiston oshpazlar Uyushmasi, Xalqaro o‘zbek pazandachilik san‘ati Markazi, Sog‘liqni saqlash vazirligi.
2.	Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi davolash-profilaktika muassasalari hamda ta‘lim muassasalari oshpazlari va oshpaz yordamchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish yuzasidan o‘quv reja dasturini ishlab chiqish.	2021 yil Yanvar	-	O‘zbekiston oshpazlar Uyushmasi, Xalqaro o‘zbek pazandachilik san‘ati Markazi.

<p>3. Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi davolash-profilaktika muassasalari hamda ta'lim muassasalari oshpazlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun onlayn o'quv programmasini ishlab chiqish.</p>	<p>2021 yil Yanvar</p>	<p>-</p>	<p>O'zbekiston oshpazlar Uyushmasi, Xalqaro o'zbek pazandachilik san'ati Markazi.</p>
<p>4. Sog'liqni saqlash vazirligi davolash–profilaktika muassasalari hamda ta'lim muassasalari oshxonalarida faoliyat yuritayotgan oshpaz va oshpaz yordamchilarining 3 yilda bir marta sog'lom taomlar tayyorlash texnologiyasi qoidalari va sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish bo'yicha malakalarini oshirish.</p>	<p>2021-2025 yillar</p>	<p>Xodimlarning o'z mablag'lari</p>	<p>O'zbekiston oshpazlar Uyushmasi, Xalqaro o'zbek pazandachilik san'ati Markazi, Sog'liqni saqlash vazirligi.</p>
<p>5. Sohada faoliyat yuritib kelayotgan xodimlarni mehnatini to'g'ri ratsional baholab, oylik maosh to'lovlarini shakllantirish maqsadida sog'liqni saqlash muassasalari oshpazlariga toifa (razryad) tayinlash va xodimlarning oylik maoshlarini tarif stavkalari bo'yicha belgilash taklifini Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Moliya vazirligiga kiritish.</p>	<p>2021 yil II-choragida</p>	<p>-</p>	<p>O'zbekiston oshpazlar Uyushmasi, Sog'liqni saqlash vazirligi</p>
<p>6. Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi davolash-profilaktika muassasalari hamda ta'lim muassasalari davlat va xususiy hamkorlik tizimini joriy qilish jarayonida muassasa oshxonalarini texnologik jihozlar va anjomlar, malakali oshpazlar bilan ta'minlash bo'yicha amaliy yordam ko'rsatish.</p>	<p>2021-2025 yillar davomida</p>	<p>-</p>	<p>O'zbekiston oshpazlar Uyushmasi.</p>
<p>7. Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi davolash-profilaktika muassasalari hamda ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlanishni tashkil etish yuzasidan doimiy monitoring olib borish, jumladan davolanuvchilar hamda ta'lim muassasalarining o'quvchilari o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish.</p>	<p>2021-2025 yillar har chorakda</p>	<p>-</p>	<p>Muassasa rahbarlari.</p>

<p>8.</p> <p>Sog'liqni saqlash vazirligi davolash–profilaktika muassasalari hamda ta'lim muassasalari oshxonalari faoliyati, ta'minlanayotgan oziq-ovqat mahsulotlari va tayyorlanayotgan taomlar, shuningdek ularda foydalaniladigan texnologik jihozlarning sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga mosligini, oshxonalar xodimlarining sanitariya-gigiena tadbirlari va epidemiyaga qarshi tadbirlar bajarilishida hamkorlik qilish.</p>	<p>2021-2025 yillar davomida</p>	<p>-</p>	<p>O'zbekiston oshpazlar Uyushmasi, Xalqaro o'zbek pazandachilik san'ati Markazi, Sog'liqni saqlash vazirligi.</p>
<p>9.</p> <p>Sog'liqni saqlash vazirligi davolash–profilaktika muassasalari hamda ta'lim muassasalarida “Eng na'munali oshxona” va “Parxez taomlari moxir oshpazi” nominatsiyalari bo'yicha ko'rik tanlovlar tashkil etish va ularning ijobiy ish tajribalarini targ'ib qilish.</p>	<p>2021-2025 yillar davomida</p>	<p>-</p>	<p>O'zbekiston oshpazlar Uyushmasi, Xalqaro o'zbek pazandachilik san'ati Markazi, Sog'liqni saqlash vazirligi.</p>
<p>10.</p> <p>Sog'liqni saqlash vazirligi davolash – profilaktika muassasalari hamda ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlanirish ishlarini tashkil etish, davolanuvchi va ta'lim oluvchilarning salomatligini yanada yaxshilash masalalariga bag'ishlangan “Sog'lom ovqatlanirish sifati ta'lim garovi” mavzusida teleko'rsatuvlar tashkil etish</p>	<p>2021-2025 yillar davomida</p>	<p>-</p>	<p>O'zbekiston oshpazlar Uyushmasi, Xalqaro o'zbek pazandachilik san'ati Markazi, Sog'liqni saqlash vazirligi.</p>